

## STYLISH-SEMANTIC FUNCTIONS OF ANTHROPONYMS AND ANTHROPONYMIC FORMS

Maftuna Rasulovna Hamroyeva,  
PhD Student of Bukhara State University

### Abstract

As a tool for the exchange of ideas of the Uzbek nation, the Uzbek language today performs a social function. It serves to fully ensure the communication process of representatives of this nation. The onomastic system of the Uzbek language is a linguistic phenomenon rich in enormous content, multifaceted and inextricably linked to each other. The study of onomastic units occurring in the text of literary works is one of the issues awaiting a solution for linguistics. In this regard, it is important to study the lexical-semantic and stylistic features of anthroponyms in the text of literary works.

Also, the contributions of our linguists, writers, and poets to the current development of the Uzbek language are incomparable. Thanks to their great work, strict norms are established in most areas of the Uzbek language, and linguistic patterns of language units in the process of communication are described.

**Keywords:** Anthroponyms, surname, nickname, tradition, religion, art, artistic work, personal names, methodology, artistic style, literary language, artistic language, existence.

### Introduction

#### ANTROPON VA ANTROPONIMIK SHAKLLARNING USLUBIY- SEMANTIK VAZIFALARI

Maftuna Rasulovna Hamroyeva,  
Buxoro davlat universiteti doktoranti.

### ANNOTATSIYA

O`zbek millatining fikr almashuv quroli sifatida o`zbek tili bugungi kunda ijtimoiy vazifa ado etmoqda. Bu millat vakillarining kommunikatsion jarayonini to`liq ta`minlashga xizmat qilmoqda. O`zbek tilining onomastika tizimi hajman



ulkan mazmunga boy, serqirra hamda bir-biri bilan uzviy aloqada bo`lgan lisoniy hodisadir. Badiiy asarlar matnida uchrovchi onomastik birliklarni o`rganish tilshunoslik oldidagi yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Bu borada badiiy asar matnidagi antroponimlarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish ahamiyatlidir.

Shuningdek, o`zbek tilining bugungi taraqqiyotiga tilshunos olimlarimiz, yozuvchilarimiz, shoirlarimizning qo`shgan hissalarini beqiyos. Ularning katta mehnatlari tufayli o`zbek tilining ko`pchilik sohalarida qat`iy normalar belgilanadi, til birliklarining aloqa jarayonidagi lisoniy namunalari tafsiya etiladi.

**Kalit so`zlar:** antroponimlar, familiya, taxallus, laqab, urf-odat, din, badiiylik, badiiy asar, kishi nomlari, uslubiyat, badiiy uslub, adabiy til, badiiy til, borliq.

## **Kirish**

Onomastika sohasida atoqli otlarni tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning ahamiyatli masalalaridandir. Xususan, O`zbek tarixiy onomastikasi, badiiy asarlar onomastikasi, folklor onomastikasi, tarixiy obida, inshootlarning atoqli otlari, tarixiy va ilmiy asarlar atoqli otlarni atroflicha o`rganish lozim. Shuningdek, O`zbek tili atoqli otlarga boy bo`lib, ularning barcha ko`rinishlari bir xilda to`planishi va o`rganilishi maqsadga muvofiq.

O`zbek nomshunosligida atoqli otlarning ma`no va grammatik xususiyatlari tahlil qilinishi o`zbek tili grammatikasi uchun qimmatli bo`lsa, atoqli otlarning amaliy muammolari jamiyat uchun katta ahamiyatga egadir. Shu jumladan, kishi nomlarining yozilishi, imlosi, uslubiy qo`llanishi ham tilshunoslikdagi muhim masalalardan biri sanaladi.

Badiiy asar tilini o`rganish hozirgi kunda tilshunoslikning muhim amaliy masalalardan biri bo`lib, u shoir yoki yozuvchining o`ziga xos badiiy vositalarini aniqlashda va undan samarali foydalanishga yordam beradi. Har bir yozuvchi, shoirning o`ziga xos yo`li, badiiy uslublari, tili bo`ladiki, u umumxalq tili qonuniyatlariga bo`ysunadi, unga asoslanadi. Har bir yozuvchi, shoir umumxalq tilidagi ifodalash vositalaridan o`zicha foydalanadi. Shu jarayonda uning asarda antroponimlardan, ya`ni kishi nomlaridan foydalanishida ham o`ziga xoslikni ko`rishimiz mumkin. Xususan, badiiy asarda qo`llangan kishi nomlarini amaliy jihatdan o`rganish va tatbiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asar tilining milliylikka va xalq turmush tarzi-yu urf-odatlariga qay darajada bog`liqligi,

mosligini ko'rsatib beruvchi vosita sanaladi. Bu esa badiiy asar matni misolida antonomimik birliklarni amaliy tahlil va talqin qilish orqali tavsiflash, antroponimlarning tarixiy takomilini o'zbek xalqining milliy-ruhiy dunyosi, asrlar davomida shakllangan ma'naviy-madaniy qadriyatlar bilan birgalikda aniqlash, o'z navbatida, dunyo ilm-fanini bundan xabardor etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shuningdek, o'zbek tili antroponimikasining izohli va imloviy lug'atini yaratish, ma'no taraqqiyoti haqida yangi xulosalar chiqarish hamda ommaga talqin qilish imkonini beradi.[4]

### **O'rganilish darajasi**

Onomastika sohasi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos ba'zi tekshirish usullari, tamoyillariga egaligi E.Begmatov, N.Uluqov "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati" kitobida berib o'tilgan. Y.Menajiyev, X. Azamatov, D.Abdurahmonov, E.Begmatovlar "Ismingizning ma'nosi nima?" kitobida tilimizdagi tushunilishi qiyin bo'lgan nomlarning ismlik va turdosh otlik ma'nolarini tushuntirib berganlar. [3] Asarning so'zboshi qismida kishi nomlarining kelib chiqishi, nom qo'yish odatlari va usullari haqida aytib o'tilgan. E. Begmatovning "Nomlar va odamlar" kitobida ism qo'yish odatlari, ismlarning tarixiy etnografik ma'nolari tushuntiriladi. Shuningdek, hozirgi zamon o'zbek tilida keng qo'llanilayotgan ismlar ro'yxati berilgan. Ushbu kitob ilmiy-ommabop tarzda yozilgan bo'lib, "Ismlar va tilsimlar", "Hurmat va zulmat", "Qizlar qismati", "Davrimiz va ismimiz" kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi. [2] Har bir bo'limdagi nomlar boshqa turkiy xalqlardagi nomlar bilan chog'ishtirilgan. Ular haqidagi ba'zi latifalar ham keltirilgan

### **Material va metod.**

Adib Tohir Malikning "Charxpalak" qissasida nomlarning o'zgacha atalganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. [6] Asardagi antroponimlar tahlilida qiyosiy tahlil metodidan unumli foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Adiblarning turli davrlarda yaratgan asarlari til jihatidan bir-biridan farqlanadi. Ijtmoy hayot taraqqiyoti, undagi o'zgarishlar, yozuvchi dunyo qarashining boyishi va o'zgarib borishi ijodkorning yaratgan adabiy asarlari tiliga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham badiiy asar tili o'rganilar ekan, shu asarni

yozuvchining boshqa asarlari bilan qiyoslash, o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur. Adib ijodiy tilini o`rganishda shu davr tarixiy sharoitini ko`rib chiqish bilan birga yozuvchining siyosiy-adabiy hayotdagi qaysi yo`nalishga mansubligi, uning dunyoqarashi va zamondoshlarining hamda o`tmish ijodkorlarining unga bo`lgan ta`sirini, shuningdek, asarning yozilish jarayonini e`tibordan chetda qoldirib bo`lmaydi.

Tohir Malik “Charxpalak” qissasida antroponimlar ham semantik, ham uslubiy vazifa bajargan. Qissada qo`llanilgan antroponimik shakllarning to`rt guruhga ajratib o`rganish maqsadga muvofiq:

1. Kishi nomlari: Nozima, Muxtor, Komil, Mavluda, Latofat, To`xtamish, G`ani, Ravshan, Murod, Ozod, Zoir, Sharifjon, Subhon, Qodir, Eshqo`zi, Shonazir, Hamroqul, Nazokat, Zuhur, Yahyo, Hamroqul, Chori, Mahkam, Qodir, Asad,
2. Familiyalar: Nusratov, Sadirov, Bo`tayev, Odilov, Qosimova, Meliyev, Omonturdiyev, Xarisov, Ismoilov, Shog`iyosov,
3. Patronomik nomlar: Jiyanboyevich.
4. Laqablar: Mug`ombir.
5. Shartli nomlar: Mavlu, To`xta, Latof.

Qissada kishi nomlari ma`no jihatdan qahramonning, ichki yoxud tashqi ko`rinishini, xarakterini ko`rsatish uchun qo`llanilgan. Masalan, Komil ismi arabcha yetuk, barkamol, kam-ko`stsiz, nuqsonsiz, donishmand degan ma`noni bildiradi. Bu nom Muhammad (sav)ning sifatlaridan biri bo`lgan. Shakllari: Komiljon, Komilxon, Komilbek, Komilboy. [1] Asardagi quyidagi o`rinlar orqali esa bu ism qahramonga munosib ism bo`la olgan deyishimiz mumkin: “Komil Sadirov bilan institutda birga o`qiganman. Ilmga berilgan bola edi.” “Komiljon rahmatli, sug`ormang, dedi. Oqil yigit edi, paxtani bilardi.”[6]

Mana shunday obrazlardan yana biri To`xtamish Omonturdiyev rasmiyatchilik yuzasidan tilga olingan nuqtalarda familiya bilan tilga olinishini guvohi bo`lsak, obrazlarning munosabatida o`zaro yaqinlik aks etgan nuqtalarda esa ism bilan va ismning qisqartma shakli bilan tilga olingan. “ - O`rtoq Omonturdiyev – o`n uchinchi sovxoz direktori. Ishga aloqador bo`lganligi uchun chaqirtirdik.” “ – E, zo`rsan, To`xta, kallang zo`r!”[6] Bu jamiyatdagi murojaat shaklining bir ko`rinishi deyishimiz mumkin. Bunda ijtimoiylik, yashash turmush tarzimiz aks etgan, albatta. Bu ism o`zbekcha ism bo`lib to`xtagan, o`lmaydigan, umri uzoq bola degan ma`noni ifodalaydi. Biz asar mazmunidan kelib chiqib bu obrazning ismidagi “o`lmaydigan” ma`nosini nafsiga nisbat berishimiz mumkin deya

olamiz. Haqiqatdan ham, To'xtamish Omonturdiyev nafsi o'lmaydigan, qoniqmaydigan kimsalarga bir misol. Aslida esa bu ism ota-ona tomonidan farzandi tinimsiz o'lavergach, keyin tug'ilgan farzandining o'lmasligi, sog'omon, uzoq umr ko'rishini istab qo'yiluvchi ismlar sirasiga kiradi.

Qissada jismiga munosib ism sifatida Latofat nomini keltirish o'rinli. Bu ism arabcha nazokatli, mehribon qiz deganidir.[1] Asar matnidan bilishimiz ham mumkinki, Latofat haqiqatdan ham nazokatli, ya'ni yoqimli qiz sifatida tasvirlangan: "Qoramag'izdan kelgan bu qiz sira unga tik qaray olmadi. Shahlo ko'zlarini javdiratib..." "Latofatxon, oy Latofatxon... Lekin ofatijonlikka ofatijon..." [6] Bu obraz qisqa shaklda Latof deb obraz tomonidan tilga olingan. Bunda Latofat obraziga nisbatan mensimaslik, o'zidan past olish semasining yuqoriligini ko'rish mumkin: "Yo tergovchi buni bilarmidi? Latof o'lgurni nimaga so'radi? Hiring-hiring qilib yurardi." [6]

Qissada ismi ruhiyatiga mos obrazlardan biri Nozima va Mavluda. Bu ismlarning ma'nosi quyidagicha izohlanadi:

Nozima arabcha tartibga, ma'lum nizomga solingan, ya'ni tartibli, intizomli, sarishta degan ma'noni bildiradi. Mavluda ismi ham arabcha nom bo'lib muqaddas kunda tug'ilgan bola degan ma'noni ifodalaydi.[1] Nozimaning asardagi kundalik turmush tarzi, ishga yondashish munosabati ham haqiqatdan tartibli intizomli ekanligini asar matnidagi bir qancha parchalar orqali ko'rishimiz mumkin: "Amaliy ishda suyagi qotmagan, ammo universitetning ijobiy tavsiyasi bilan kelgan bu juvon bilan bir-ikki gaplashdi. Uning aqlli, og'ir tabiatli ekanini shu suhbatlar davrida ilg'ab oldi." [6] Asardagi voqealar rivoji davomida ham bu obrazning intizomli, sarishta ayol ekanligini kuzatish mumkin. Mavluda obrazida esa uning muqaddas kunda tug'ilganligi izohini ko'rmaymiz, lekin bu obrazning muqaddas tuyg'ularga sodiqligi bilan o'zbekning haqiqiy muqaddas, milliy ayoli sifatida gavdalantirilgan obraz deya olamiz: "Agar o'sha pulni olib kelganingizda, odamlarning halolligiga bilgan ishonchim butunlay so'nar edi", - dedi! Komilga yana qanday maslakdosh kerak?! Xotinlar yaxshi yostiqdosh bo'lishi mumkin, yaxshi ona... bo'lishi mumkin, ammo chin maslakdosh bo'la oladiganlari peshanasi yaraqlagan yigitlarga nasib etadi. Komil buni o'shanda kashf etgan edi." [6] Demak, bu obraz har qanaqasiga muqaddas inson timsoli deyishimiz mumkin. Bu ismning obraz tomonidan Mavlu shaklida tilga olinganligini kuzatishimiz mumkin: " – Mavlu... itingizning yalog'igacha oltin bo'ladi. Siz... malikasiz, eng go'zal, eng boy malikasiz..." [6] Bu kabi

qo`llanilishlardan ijodkor obrazlar o`rtasidagi munosabatni ko`rsatishda, yaqinlik, suyish ma`nolarini ifodalashda foydalanadi deyishimiz o`rinli.

Shuningdek, qissada familiya bilan atalgan obrazlarni ham uchratish mumkin. Ulardan ikki xil ko`rinishda foydalanilgan.

1) Ijodkorning qahramonga munosabati ko`rinishida:

“Boshliq huzuriga kirganida kapitan Ravshan Odilov xotirjam edi.”

“Omonturdiyev yuzini shamolga tutib, o`yga toldi...”

“Diqqat bilan quloq tutdi. Dekan Omonturdiyevni darrov esladi.”

“Yigit shu savoli bilan yuragida bir dard borligini oshkor qilib qo`ygani uchun ham Sulonovda u bilan suhbatlashish istagi tug`ildi.”[6]

2) Obrazlar o`rtasidagi muloqot ko`rinishida:

“- Yigirma ikkinchi avgust kuni ertalab Omonturdiyev eringizni qayerda ko`rishi mumkin edi?”

“ – Qiziq, o`zining aytishicha, o`sha kuni Sadirovni ertalab ko`rgan... Sadirov... mast bo`lgan.”

“ – Omonturdiyev sovxozga 1976-yili director bo`lgan. Sadirovni nima uchun o`shanda emas, balki to`rt yildan keyin sovxozga chaqirdi?”[6]

Familiyalarning birinchi shakldagi bu kabi qo`llanilishi mansabdor shaxs ekanligini ko`rsatish uchundir. Ikkinchi shakldagi qo`llanilish esa jamiyatdagi muloqot shaklini ko`rsatish, asardagi hayotiylikni ifodalash.

Demak, bu kabi murojaat shakli obrazning mansabdor shaxsligiga ishora sifatida qo`llaniladi. Chunki jamiyatda ham mansabdor shaxslarga nisbatan shunday murojaat shaklini kuzatishimiz mumkin. Bu esa asar tili zamon va jamiyat bilan omixta tarzda munosabatda bo`lishiga hamda ijodkorning uslubida hayotiylik shakllarining mavjudligiga bir ishoradir.

Bundan tashqari asarda Murod obrazi mug`ambir laqabi bilan tilga olingan:

“Mana bunisi Murod mug`ambir uchun yangilik bo`ldi.”[6] Bu obraz barcha

o`rinlarda mug`ombir shaklida tilga olingan. Lekin uning shaxsiyati va mug`ambir deb atalishiga ijodkor bevosita fikr bildirmagan. Ko`rinishini esa quyidagicha tasvirlagan: “ – Mug`ambir, o`lganmisan? Uyqusi o`chmagan Murad mug`ambir qornini osiltirib, lapanglab chiqib keldi... Murod semiz bo`lgani bilan chaqqon edi. Birpasda dasturxon bezadi.”[6] Uning shu laqabga munosib ekanligini esa asar voqealari mazmunidan kelib chiqib tushunish mumkin.

Qissada qo`llangan ismlarning o`rni, albatta, shu asar mazmuni va ruhiyati uchun mos. Ular ijodkorning ko`zlagan maqsadini ifodalashda ko`rsatishda o`z o`rni

bilan ahamiyatga ega. Ulardan bu tarzda mohirona foydalanish har qanday ijodkor uchun yutuqdir.

Badiiy asardagi onomastik birliklar, xususan, antoponimlar ham mana shu millat, xalq hayoti va o`tmishidan olingan, unda o`z aksini topadi. Xuddi shuning uchun ularni o`rganish va tadqiq qilish muhimdir. Bu orqali biz o`z milliyligimiz, tariximizni bilish va anglashda yana bir qadam oldinga siljiymiz. Men o`ylaymanki, ijodkorlarimizning o`lmas merosi bizga ana shu bir qadam oldinga harakat uchun juda katta yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри. – Тошкент:«O`zME», 2007. 604 б.
2. Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 12;
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси (Библиографик кўрсаткич). – Наманган, 2008. – Б. 134-145.
4. Бегматов Э., Хусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 5/6, 21-27-б.
5. Рашидова М. Лақабларнинг услубий-функционал хусусияти ҳақида. Тил ва адабиёт таълими, 2009, 4. 31-33-бет.
6. Tohir Malik. “Murdalar gapirmaydilar.” Т.:Шарқ 2019. Б. 4-234.
7. Тоҳир Малик. “Падаркуш” Т.: 2014. Б. 13-45.
8. Tohir Malik. “Voy, onajonim.” – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2018. 66-b.
9. Hamroyeva R.M. “The literary of anthroponyms” ISSN (Online): 2455-7838 SJIF Impact Factor : 7.001 Research & Development Volume: 5, Issue:10, October 2020. EPRA International Journal of (IJRD) Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal ISI I.F. Value : 1.241 Indexed By: DOI : 10.36713/epra2016
10. Hamroyeva R.M. USE OF ANTHROPONYMS IN TAHIR MALIK’S STORIES. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1, 2021P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903
11. Hamroyeva R. M. Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story" Devona") //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
12. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadriddin Aini //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.